



ELBEK MASALLARINING TARBIYAVIY XUSUSIYATLARI

Olimova Mashhura

O‘zDSMI Kutubxona – axborot faoliyati
fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining iste’dodli namoyondalaridan biri – Elbek taxallusi bilan tanilgan Yunusov Mashriqning hayoti va ijodiy merosi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Elbek o‘z davrining ijtimoiy- siyosiy voqealıklariga befarq bo‘lmagan, adabiy ijodi orqali xalq dardini, millat taqdirini aks ettirishga intilgan ijodkorlardan biridir. Elbekning ijodiy faoliyati milliy uyg‘onish ruhini va adolat g‘oyalarini targ‘ib etgani bilan ajralib turadi.

Kalit so‘zlar: jadid adabiyoti, bolalar adabiyoti, folklor, masal, she’riyat, didaktik adabiyot.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПРИТЧА ЭЛБЕКА

Аннотация. В статье научно анализируется жизнь и творческое наследие одного из талантливых представителей узбекской литературы Юнусова Машрика, известного под псевдонимом Элбек. Элбек относится к числу творцов, равнодушных к общественно-политическим событиям своего времени и стремившихся отразить страдания народа и судьбу нации через свое литературное творчество. Творчество Элбека отличается тем, что оно пропагандировало дух национального возрождения и идеи справедливости.

Ключевые слова: джадидская литература, детская литература, фольклор, притча, поэзия, дидактическая литература.

EDUCATIONAL FEATURES OF THE PARABLE OF ELBEK

Abstract. The article scientifically analyzes the life and creative heritage of one of the talented representatives of Uzbek literature Yunusov Mashrik, known under the pseudonym Elbek. Elbek is one of the creators who were not indifferent to the socio-political events of his time and sought to reflect the suffering of the people and the fate of the nation through their literary work. Elbek's work is distinguished by the fact that it promoted the spirit of national revival and the ideas of justice.

Keywords: Jadid literature, children’s literature, folklore, parable, poetry, didactic literature.

Elbek (taxallusi; asl ismi Yunus Mashriq) 1898-yilda Bo‘stonlik tumanining Xumson qishlog‘ida tug‘ilgan. U o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos poetik uslubga ega





bo'lgan shoir, tilshunos va folklorshunos sifatida tanilgan. Elbek ijodining shakllanishida Turkiston matbuoti, jadid maktablari, zamonasining ilg'or ziyolilari katta rol o'ynagan. Shoir faoliyatini turli bosqichlarga bo'lish mumkin: she'riyatdagi ilk izlanishlari, bolalar uchun yaratilgan didaktik asarlar, masallar janridagi namunalar va tarjima faoliyati. Jadid adabiyoti- o'zbek xalqining ma'naviy uyg'onish davrida shakllangan, zamonaviy bilim, tarbiya va jamiyatni yangilash g'oyalari bilan sug'orilgan madaniy merosidir. 1911-yilda Toshkentga kelgan Elbek dastlab "Xoniy" maktabida, so'ng A.V. Avoloniyning "usuli savtiya" maktabida tahsil olgan. 1920-yildan boshlab pedagogik faoliyat bilan shug'ullanib, ilmiy xodim sifatida ham xizmat qilgan. Uning dastlabki she'rlari 1917-yildan boshlab "El bayrog'I", "Turon", "Turk so'zi", "Ulug' Turkiston" kabi gazetalar sahifalarida e'lon qilingan. Elbek 2–4-sinf o'quvchilari uchun "E'zuv gullari" (1921), "O'rnak", "Guzal yozuvchilar" (1925), "Boshlang'ich maktabda ona tili" kabi darslik va qo'llanmalarni yozgan. U maktab bolalari uchun mo'ljallangan o'quv adabiyotlarida milliy qadriyatlarni, axloqiy-me'yoriy tushunchalarni singdirishga intilgan.

Elbek A.S. Pushkin, I.A. Krilov, N.A. Nekrasov kabi rus shoiri va adiblarining asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Bu esa o'zbek kitobxonining estetik dunyoqarashini boyitishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Elbek til va adabiyotimiz bo'stoniga turfa gullar ekib o'z hissasini qo'shgan. Shu davrning ijtimoiy-siyosiy voqeliklari, ma'rifatparvarlik g'oyalari yosh avlod ongida katta o'zgarishlar yasagan edi. Elbek singari ijodkorlar ham aynan shu muhitda shakllanib, hayotining ilk bosqichlaridayoq bilim olishga bo'lgan ishtiyoqi bilan ajralib turardi. Uning Toshkentga kelib, mehnat qilish bilan birga ta'limni davom ettirishi, o'z mehnati evaziga bilimli bo'lishga intilishi — o'sha davr yoshlariga xos bo'lgan fidoyilik namunasi hisoblanadi.

Elbekning o'qituvchilik faoliyati, pedagogik kurslarni tamomlab, xalq maorifi sohasida ishlashni boshlashi, uning nafaqat adabiy, balki ijtimoiy faolligidan ham darak beradi. Bu davrda u faqat shoir sifatida emas, balki o'z she'rlari bilan yoshlarni ilm, ma'rifat va ezgulik sari chorlovchi ma'naviyat targ'ibotchisi sifatida ham tanilgan. Ayniqsa, uning "Armug'on" to'plamidagi masalalar orqali ijtimoiy muammolarni yoritishga uringani, badiiy shakllar orqali ijtimoiy ongni uyg'otishga intilgani e'tiborga loyiq. Shoirning bolalar adabiyotiga qo'shgan hissasi alohida bahoga loyiqdir. U bolalar uchun yaratgan she'rlari, ertak va dostonnari orqali yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga xizmat qilgan. "G'unchar", "Ona", "Bolalar qo'shig'i" kabi asarlarining barchasi yosh kitobxon ongida ezgulik, mehr va mehnatga hurmat tuyg'ularini shakllantirgan.

Elbek ijodidagi yana bir muhim yo'nalish — hikoyachilik san'atidir. Uning hikoyalari o'zbek nasriy adabiyotida soddaligi, hayotiyliigi va xalqona tili bilan ajralib





turadi. “Men kim bo‘laman”, “Chirchiq”, “Anorqiz” kabi hikoyalarida muallif xalq hayotini realistik ruhda tasvirlagan. Aynan mana shu jihatlar uni o‘zbek adabiyotida o‘z o‘rniga ega ijodkor sifatida e’tirof etilishiga sabab bo‘lgan. Elbek “Ot ila odam”, “Qaysi biri bo‘ri”, “Sichqonxonning qiz uzatishi”, “Olaqarg‘a bilan qurbaqa”, “Quyvan bilan toshbaqa”, “Itlarning o‘rtoqligi” singari masal janrining o‘ziga xos namunalari yaratdi. Asar sarlavhasidanoq ma’lum bo‘ladiki, hikoya markazida sichqonlar oilasi va ularning qiz uzatish jarayoni turadi. Masalda sichqonning ota-onasi o‘z qizini eng kuchli, qudratli “kishiga” uzatmoqchi bo‘lishadi. Ular eng avvalo Quyoshga murojaat qilishadi:

Quyoshdek kuchli kim bor, qizimizni o‘shanga beramiz!

Biroq Quyosh ularning istagini rad etadi va aytadiki:

Mendan kuchli bulut bor, u kelganda men ko‘rinmay qolaman.

Shundan so‘ng ular Bulutga borishadi, Bulut esa Shamolni kuchli deb ko‘rsatadi, Shamol esa Tog‘ni... Biroq yakunda Tog‘:

Men kuchli emasman, sichqon men teshik ochib, meni ham yengadi, – deydi.

Shunday qilib, sichqon ota-ona o‘zlari baribir o‘z turiga mos ravishda qizini sichqonga uzatishadi.

Ushbu masalda chuqur ramziy ma’no yotadi. Asarda hayotiy haqiqat – har kim o‘z turiga munosib bilan hayot qurishi lozimligi haqida ibratli g‘oya ilgari suriladi. Masal orqali adib me’yor va mantiqqa asoslangan tanlov muhimligini, ko‘zbo‘yamachilik yoki faqat kuchga tayanib qaror qabul qilish noto‘g‘riligini ko‘rsatadi.

Elbek yaratgan “Sichqonxonning qiz uzatishi” masali o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos didaktik mazmun kasb etadi. “Sichqonxonning qiz uzatishi” masalida Elbek qadimiy xalq og‘zaki ijodiga xos motivni zamonaviy talqinda qayta ifoda etgan. Asarda kuch-qudrat izlash orqali har kimning o‘ziga mos juft topishi, ya’ni hayotda tabiiy muvofiqlikning ahamiyati ulug‘lanadi. Sichqonlar Quyosh, Bulut, Shamol va Tog‘ orqali borib, yakunda o‘z turiga qaytadi. Bu syujet orqali muallif odamzod o‘zligiga mos tanlov qilishi, tashqi ko‘rinish emas, ichki moslik ustuvor ekanini ta’kidlaydi. Sichqonlarning sayohati davomida kuchlilik haqida tushunchalari tobora chuqurlashib boradi va ular haqiqiy kuch – o‘zligini anglash va haqiqatni tan olishda ekanligini tushunishadi. “Qaysi biri bo‘ri?” masali esa zamonaviy jamiyatdagi niqobli yovuzlik, ikkiyuzlamachilik va yolg‘onning g‘alabasini fosh etadi. Masalda bo‘ri haqiqiy qiyofasini yashirib, begunoh ko‘rinishga kiradi, shu bois hayvonlar uni tanimaydi va bir-birini ayblash bilan ovora bo‘ladi.

Ushbu masal ixtilof, shubha, ishonchsizlik va yolg‘onning jamiyatga soladigan xavfi haqida ogohlantiradi. Asar orqali muallif insonlarni hushyorlik, tafakkur bilan baho berish, va haqiqatni yuzaga chiqarishga undaydi. “Bir kuni o‘rmonda hayvonlar





yig'ilishdi. Sababi — ichkarida bir bo'ri paydo bo'libdi. U hech kimni tinch qo'ymayapti: kimningdir bolasini cho'qib ketar, kimningdir qulog'ini tishlar, kimningdir oziqini o'g'irlar. Ammo hech kim uning qiyofasini aniq ko'rmagan. Qushlar bir ovozdandod soladi:

— Bo'ri o'rtamizda, lekin kimligini bilmayapmiz!

Shunda eshak aytdi:

— Menimcha, bu ishning ortida tulki turibdi. Juda ayyor, har kuni boshqa niqobda yuradi.

Tulki shosha-pisha javob berdi:

— Yo'q, yo'q! Men emasman! Balki kuchukdir? U juda ko'p narsa biladi, har yerga kiradi, chiqadi.

Kuchuk esa javoban irshaydi:

— Men qorovulman! Balki bu... jim yuradigan echkidir? Uning nigohi har narsani kuzatadi.

Echki esa bosh irg'ab:

— Men faqat o'zimning o't-o'lanimni yeyman. Balki bu qarg'adir? Doim balanddan kuzatadi...

Shunday qilib, hayvonlar bir-biridan gumon qila boshladi. Har kim bo'ri deb o'ylaganini aytdi. Har kim o'zini oqlab, boshqani aybladi.

Shu payt mayin tovushda bir hayvon chiqdi. U to'g'ri gapirardi, muloyim edi.

— Men bo'ri emasman. Faqat tartibni xohlayman. Men faqat sizning tinchligingizni istayman. Kim bo'lsa ham, biz birga uni topamiz, — dedi u jilmayib.

Hayvonlar unga ishonishdi. Uning sokin ovozi, toza libosi, shirin muomalasi barchani aldagandi. Hech kim o'ylamadi: bo'ri aynan shu bo'lishi mumkinligini.

Oradan vaqt o'tdi. Bo'ri yana o'g'rilik qildi, yana biror hayvon yo'qoldi. Ammo hayvonlar hanuz bir-biridan shubhalanardi. Asl bo'ri esa o'z niqobi ostida yurishda davom etardi...

Umuman olganda, Elbek masallarida ramziy ifoda, badiiy vositalarning sodda, ammo chuqur ma'noli qo'llanilishi orqali yuksak axloqiy-falsafiy g'oyalar ilgari suriladi. Bu masallar yosh avlod tarbiyasida, ijtimoiy tanqid va o'zlikni anglash jarayonida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu masalda Elbek jozibali personajlar, sodda, ammo hikmatli syujet, va muvozanatli dialoglar orqali o'quvchiga murakkab hayotiy haqiqatni oson yetkazishga erishgan. Elbekning qamoqqa olinishi va hayotining fojeali yakuni o'z davrining murakkab siyosiy iqlimi. Bu yillarda yuzlab ziyolilar, ma'rifatparvarlar, san'atkorlar "xalq dushmani" tamg'asi bilan tuhmatga uchrab, qatag'on qilindi.





Elbek ham bunday fojiali taqdirga duch kelgan ko‘plab iste‘dod egalari qatorida edi. Uning hech bir jinoyat sodir etmagani, aksincha, butun umri davomida xalq maorifi va bolalar tarbiyasiga xizmat qilgani tarixiy haqiqatdir.

Shoirning Magadandagi sovet lagerlaridan birida jon berishi — nafaqat bir ijodkorning, balki butun bir avlodning ma‘naviy boyligiga qaratilgan zo‘ravonlikning timsolidir. U qoldirgan asarlar, tarbiyaviy ahamiyatga ega she‘rlari, dostonlari va hikoyalari bugun ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Ayniqsa, bolalar adabiyoti sohasidagi xizmatlari orqali Elbek o‘zbek adabiy merosida muhim o‘rin egallaydi. Bugungi kunda Elbek kabi qatag‘on qurbonlari xotirasi tiklanib, ularning ijodiy merosi chuqur o‘rganilmoqda. Adibning adolatga intilgan qalbi, xalqparvarlik ruhi, ma‘rifatga bo‘lgan sadoqati yosh avlodga ibrat bo‘lib qolaveradi. Elbekning adabiy merosi o‘zbek bolalar adabiyotining shakllanishi va rivojida muhim rol o‘ynagan. Uning didaktik ruhdagi asarlari, masallari, she‘rlari va tarjimalari bugungi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmagan. Ayniqsa, bolalar uchun yozgan asarlaridagi milliy qadriyatlar, axloqiy g‘oyalar yosh avlod tarbiyasida muhim vositadir.

Adabiyotlar:

1. Aliyev A. Elbek va davr adabiy jarayoni. “O‘zbekiston Adabiyoti va san‘ati” gazetasi, 1989-yil, oktabr.
2. Elbek. Tanlangan asarlar. Toshkent: “Sharq”, 1999-yil
3. Qobulov N. Elbek. Toshkent: “Fan”, 1988.
4. <https://oyina.uz/storage/publications/June2024/cRLbI0OMI3716QeNzZKT.pdf>

